

2024-yil 16-may

“O'zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisi bir guruh yoshlar bilan uchrashdi



Bugun “O'zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisi Timur Muxamedjanov bir guruh yoshlar bilan uchrashdi

Uchrashuvda tarmoq korxonalari yoshlar masalalari bo'yicha boshqaruvi raisi maslahatchilari, yosh mutaxassislar hamda D.I. Mendeleyev nomidagi Rossiya kimyo texnologiyalari universitetining Toshkent filiali talabalari ishtirok etishdi.

Ma'lumot uchun: hozirda tizim korxonalarida faoliyat yuritayotgan yosh mutaxassislar soni 5193 nafarni tashkil etadi. Shulardan 3417 nafari erkak, 1776 nafari qizlar. 70 nafar yosh mutaxassis rahbar lavozimida faoliyat yuritadi.



Boshqaruv raisi jamiyat faoliyatida yosh mutaxassislarning o'zni haqida alohida ta'kidlab o'tdi. Yosh kadrlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratish, salohiyatli mutaxassislarning malaka va tajribasini oshirish maqsadida Jamiyat tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar haqida to'xtaldi.

Xususan, yosh kadrlar malakasini oshirish bo'yicha "O'zkimyosanoat" AJning xorijiy kompaniyalar bilan samarali hamkorligi haqida ham ma'lumot berildi.

Uchrashuvda yoshlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga batafsil javob olishdi, mutaxassislarni rag'batlantiruvchi turli intellektual va kasbiy ko'rik-tanlovlarni tashkil etish borasida o'z takliflarini bildirishdi.



“O‘zkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-boshqaruvi-raisi-bir-guruh-yoshlar-bilan-u>